

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA YOZISHNI O`RGATISH METODIKASI

Sharapova Bahora Akbarovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand Filiali Talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarga yozishni o`rgatish bo`yicha, ustozlar va ota-onalar uchun bir qancha qo`llanmalar keltirilgan bo`lib, maktabgacha va boshlang`ich ta`limdagi o`quvchilarning yozish malakalarini oshirishga hamda yozishni o`rgatishda qanday maslahatlarga amal qilish to`g`risida fikr – mulohazalar yoritilgan.*

Kalit so`zlar: *maktabgacha va boshlang`ich yosh, harflar, bo`g`in, elementlar va bosma harflar, mayda motorika, mashqlar, qo`l mushaklari, ko`nikma, malaka.*

Ilm- fan taraqqiy etgan bu davrda, bola kamolotining shakllanishiga har tomomlama ahamiyat berilmoqda. Ularning ijodiy faolligini oshirish hamda bilim va ko`nikmalarini rivojlantirish mamlakatimiz ta`lim tizimining dolzarb vazifasidir. Respublikamizda ilm- fan va ta`lim – tarbiya tizimining asosiy poydevori bo`lgan maktabgacha ta`limni har tomonlama mukammal va zamon talabiga mos ravishda sifatli tashkil etish borasida ko`plab islohotlar va chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha va boshlang`ich ta`lim yo`nalishi uchun maxsus kadrlar tayyorlash, bog`cha va maktablarni zamonaviy texnikalar bilan taminlash, bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan yangilash, bolalarni har tomonlama; estetik, jismoniy, ahloqiy va entelektual rivojlantirish uchun shart- sharoitlar yaratish kabi muhim vazifalar mamlakatimiz ta`lim tizimining amalga oshirayotgan islohotlaridandir.

Bola kamolotining rivojlanishi va uning ta`lim sohasini mukammal egallashining asosiy va boshlang`ich poydevorlaridan biri yozuvni o`rganish va chiroyli yozishdir. Chiroyli yozish orqali bolalar boshqa fanlarni o`zlashtirishi ham oson bo`lib boradi. Husnixatni o`rgatish bilan bir qatorda bolalarning chiroyli yozuv malakalarini oshirishga ham e`tibor qaratish muhimdir. Shuningdek, husnixatning oldiga bir qancha maqsad va vazifalar qo`yilgan. Ulardan biri bolalarga yozishni o`rgatish orqali ularning aqliy faolligini oshirish hamda ularning atrof-muhit haqidagi bilim va tushunchalarini kengaytirish, husnixatni tanitish bilan bir qatorda boshqa fanlar bo`yicha bilimni rivojlantirishva yozuv daftarlari bilan ishlash ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Birinchi navbatda bolalarning qiziqishini aniqlab, ularning hohish – istagini inobatga olgan holda yozish mashg`ulotrini o`yin tarzida va eslab qolishga oson elementlar nomlari bilan bog`lab o`rgatish o`qituvchi va murabbiylar oldiga qo`yilgan vazifadir. Chunki kichik yoshdagi bolalarni majburan biror narsani o`rganishga o`rgatish bilan ularning qiziqishini yo`qotib qo`yish mumkin. Shuning uchun bolaning o`qib -o`rganishi qiziqarli o`yinni yodga solishi lozim. Bolalar xat` qilgan vaqtda ham hech qanday tanqidiy so`zlar, qoniqarsiz baho hamda salbiy hislardan foydalanmaslik kerak. Yozishni o`rganish muhim hamda murakkab jarayon bo`lib, bu vaqtda bolalar o`zlarining ko`rish qobiliyatini, diqqat va o`tirib ishlashni talab etadigan murakkab vaziyatni hamda qo`llarning mutanosiblikdagi harakatini nazorat qilib borishi kerak bo`ladi. Shuning uchun yosh bolalar yozishni uzoq vaqt davomida

o`rganib boradi. Agar bolalar charchaganini sezsangiz ularga dam berishishingiz kerak bo`ladi chunki zo`riqish bola organizmi rivojlanishiga salbiy ta`sir korsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qo`llarini yozishga o`rgatish uchun ham bir qancha mashqlar mavjud. Bunday mashqlarni bajargan bolalar yozishni o`rganishda qiyinchiliklarga uchramaydi:

- Ilmoqda to`qishni o`rgatish
- Konstruktorlardan modellar yig`ish.
- Xamir va plastlindan har xil narsalar yasash.
- Mayda motorikani rivojlantirish.
- Qog`ozda chizilgan shakllarni chiziq bo`ylan , xatosiz qirqib olishni o`rganish.
- Bo`yoqlar , rangli qalamlar va flomaster yordamida rasm chizish va bo`yash.

Mashqlarni muntazam ravishda ota – ona hamda murabbiylar nazoratida bajarib borish bolalarning aqliy faoliyatini oshirishga hamda husnixatni oson o`rganishiga ko`maklashadi. Bularning barchasini elementlarni , vertical hamda gorizontal chiziqlar , oval va boshqa shakllarni o`rgatishdan boshlash bolalarning qiziqishi oshib borishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun alohida yozuv daftarlari bo`lib, ularda ko`plab yozuvga oid mashqlar berilgan. Bolalar harflarni yozishni yozuv daftarlaridan o`rganishining eng foydali jihatlaridan biri , har bir daftarda harflar , bo`g`inlar va so`zlarning nuqta-nuqta shaklida yozilgan namunasi mavjud va bolalar nuqtalarni birlashtirib yozishni o`rganadi. Ushbu mashqlar Bolani tartibli yozishga , bosma harflarni o`rganishga , chiroyli hamda xatosiz yozishga ko`maklashadi. Katak va chiziqlar Ichida yo`nalish olishni osonlashtiradi. Yozuvni o`rganishning boshlang`ich davridan o`tgandan so`ng , bolalar alifbega tayyorlanishni boshlashadi. Alifbega tayyorgarlik davrida bolalarga murabbiylar tomonidan , avvalo, nutq , og`zaki va yozma nutq, gap, nutqning gaplardan tashkil topganligi , gaplar esa so`zlardan tashkil topganligi, so`zlar, bo`g`inlar va harflarning yozma shakllari haqida bilim va ko`nikmalar berib boriladi. Unli hamda undosh tovushlarni o`rgatib og`zaki so`zlar va gaplarni tuzishni o`rgatib , ulardan amaliy foydalana olish ko`nikmalarini hosil qilish ham ota – ona va ustozlarning asosiy vazifasidir.

Harflarni shaklini o`rgatishda , avvalo, o`qituvchining o`zi chiroyli va xatoga yo`l qo`ymagan holda tushuntirishi kerak. Chunki bolalarning boshlang`ich ilmi butun umrlik ilm hisoblanadi va qancha harakat qilsa ham yozuvini keyinchalik o`zgartira olmaydi. Buning uchun o`qituvchining o`zi yaxshi yoza oladigan bo`lishi kerak. Bundan tashqari, o`qituvchi har doim bir xil shaklda harflarni yozishni tushuntirishi ham bolaning xatoga yo`l qo`ymasligiga yordam beradi. Chunki o`qituvchi bitta harfni birinchi kun boshqa shaklda, ikkinchi kun ham boshqacha shaklda yozsa, o`qituvchilar ikkilanib qoladilar va o`rganishda qiyinchilikka duch keladilar. O`qituvchidan ham ziyrak bo`lish talab etiladi. Chunki ular bir harfning boshqa harfdan farq qilishini , ularning alohida talaffuz shaklini , to`g`ri va noto`g`ri yozilgan harflarni bir -biridan ajrata olishi ham kerak bo`ladi.

Bolalarga yozishni o`rgatish mobaynida ularning qo`l muskullari zo`riqmasligi uchun qo`llarni dam oldiruvchi harakatlar va o`yinlarni o`ynatish kerak bo`ladi. Chunki bolaning zo`riqishi uning ham aqliy ham jismoniy rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Bolalarga majburan vazifani bajartirish esa ularning qiziqishi susayishiga va bilim olishga bo`lgan

ishtiyiqi kamayishiga olib keladi. Shuning uchun har bir to'g'ri bajargan vazifasi uchun ularni rag'bantlantirib turish lozim. Bolalar xato qilsalar ham ularga past baho qo'yish yoki tanqid qilish to'g'ri ish emas. Chunki har bir bolaning psixikasi har xil. Agar murabbiy ularni tanqid qilsa yoki boshqa bolalar bilan solishtirsa ularning ishtiyiqi o'lib boradi va o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilmay qo'yadi.

Yozishni o'rgatishda xatoni tuzatish usulidan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi doskaga to'g'ri va noto'g'ri harflarni yozib, o'quvchilardan to'g'ri va noto'g'ri harflarni ajratib berishini so'rab ularning tanqid nazariyasini oshirib borishi ham bolaning aqliy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi. Bunday tanqidiy munosabatning rivojlanishi esa xato qilishning va harflarni noto'g'ri yozishning oldini oladi. Bunday noto'g'ri yozilgan harflarni doskada tahlil qilish esa juda ham foydali. Chunki uni hamma bolalar kuztib turadi. Yana bir muhim qoidalardan biri o'quvchilar ruchkani qay tarzda ushlashni o'rganishi, yozayotganda ruchkani qaysi tomonga harakat qildirishni, qayerda burilish bo'lishi, qaysi harfni qay darajada qiyalikda yozishni o'rganishlari lozim.

Kichik yoshdagi bolalar harflarni o'rganib, ularning shakllari va og'zaki talaffuzini o'rganib bo'lgandan so'ng ham ular oldida bir muncha murakkab vazifalar bor. O'quvchilar 1-sinfga borganda, yozish bo'yicha bir oz bo'lsa ham ko'nikmaga ega holda bo'ladilar. 1-sinfda ular yozishni o'zlashtirish davomida o'qituvchining gapini tinglaydilar, doskada yozilgan harflarni ko'chirishni o'rganadilar, ayrim matnlarni ko'chirib, so'z va bo'g'inlarni tahlil qiladilar. Bundan tashqari bolalar uchun husnixat ilmini o'rganish boshqa fanlarni ham har tomonlama chuqur o'rganishga yordam beradi.

Bolalarga yozishni o'rgatish mobaynida o'qituvchi ularning husnixatiga, ularning chiroyli yozishiga e'tibor berishi kerak. O'quvchilarni chiroyli yozishga, toza va ozoda holda yozishga, ularning harflarni yozish shakliga alohida e'tibor berishi lozim.

Kichik yoshdagi bolalarga yozishni o'rgatish kompleks va mexanizmlarini o'rganish uchun bir nechta foydali metodlar mavjud:

Soddalashtirilgan qalam yoki marker bilan yozish: Bolalar uchun yozish jarayoni soddalashtirilgan qalam yoki marker bilan boshlanishi mumkin. Bu ularning qalam va marker ga odatlangan his-tuyg'ularini o'rgatishda yordam beradi.

Sun'iy qog'ozlar yoki mazmunlar orqali o'rgatish: Yozishni o'rganish uchun sun'iy yozuvlar, o'quv kengashi qog'ozlari, yoki maktab fun dirmizlg'i orqali bolaga yozishni o'rgatish mumkin.

So'zlargli rejadan foydalanish: Sun'iy so'zlargli rejalar, yozishning asosiy qoidalari va harflari, asosiy matn shakllarini o'rgatishda yordam berishi mumkin.

O'yinlar va animatsiyalar: Yozishni o'rganish jarayonini yengillatish uchun o'yinlar va animatsiyalar bilan yo'lga qo'yish foydali bo'ladi. Bu o'rganish turmush tarzi yordamida bolaning ehtiyojlariga mos qilinishi mumkin.

Yozishning axborotli oyin va mashqlari: Bolalar yozishni o'rganish uchun axborotli oyinlar va mashqlardan foydalanish orqali motivatsiyalash va yengillik qilishi mumkin.

Yozishni o'tkazishning asosiy qoidasi sabr va tayyorlik ta'limotlarning mavjudligi va o'tilgan materiallarni amaliy amalda qo'llashdir.

Husnixatni o'rganishning bolalar uchun bir nechta foydalari mavjud:

Madaniyat va ijtimoiy rivojlanish: Husnixat o'rganish, bolalarga madaniyat, san'at, va ijtimoiy qadriyatlar orqali tushuncha beradi va ularni ijtimoiy rivojlanishga yondashadi.

Tedrisiy murojaat: Husnixat o'rganish, bolalarga mustaqil fikr bildirish, fikr-mulohazalar bilan ishlash va o'zining fikrini ifoda qilishni o'rgatadi.

Ixtisoslashtirish: Husnixat o'rganish, bolalarni ijodiy va ixtisosiy sohalarda ixtisoslashtirishga yo'l qo'yadi va ularning uning ustida yetaklilarni rivojlantirishga yordam beradi.

Qimmatbaho ko'nikmalar: Husnixat o'rganish jarayoni orqali, bolalar ko'nikmalar qimmatbaho ekanini, to'g'ri qiyinchilik bilan rivojlanib, sabrli va mehnatkor bo'lish kerakligini o'rganishadi.

Bahramandlik va tinchlik: Husnixat o'rganish, bolalarga ijodiy faoliyatlar orqali bahramandlik va tinchlik hissiyatini oshirishi mumkin.

Kreativlik va ijodkorlik: Husnixat o'rganish, bolalarga kreativlik va ijodiy yondashuv orqali fikrini ifodalash, muammolar va yostiq voqealarga yechim topishni o'rgatadi.

Ko'ngil ochish: Husnixat orqali, bolalar yaratuvchi g'oyalar, rang-barang tasvirlar va qiziqarli musiqiy tajribalari orqali ko'ngil ochish va ma'naviy rivojlantirilishlari mumkin.

Husnixat o'rganishning bolalar uchun bu foydali maslahatlar, ularning o'zlarini ifodalash, ijtimoiy rivojlanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratishda katta o'rnini egallaydi. Husnixat va uni o'qitish fani amaliy fan bo'lib, u chiroyli yozishga o'rgatish bilan birga ta'lim berish, tarbiyalash, bolaning aqliy faolligni oshirish, uning mukammal bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalarini ham bajaradi. Husnixat va uni o'qitish boshqa fanlar bilan ham uzviy bog'liq bo'ladi .

Bolalarga yozishni o'rgatishdek murakkab vazifa barcha murabbiylar va ota-onalar oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, bolalarning kamolotga yetishiga hamda aqliy jihatdan kamolotga yetishiga yordam beradi. Birinchi marta yozishni o'rgatishda ko'rgazmali vositalar ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bolalar dars xonasiga rasmlari hamda harflarni o'rgatadigan ko'rgazmalarni devorlariga ilib qo'yish ham juda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azimov, Yunus and Rustambek Qo'ldoshov. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari.
2. "Teaching for Artistic Behavior: Cultivating Creativity for 21st Century Skills" - Katherine M. Douglas
3. "The Arts and the Creation of Mind" - Elliot W. Eisner
4. "Studio Thinking: The Real Benefits of Visual Arts Education" - Lois Hetland
5. "Art Is Fundamental: Teaching the Elements and Principles of Art in Elementary School" - Eileen S. Prince

6. "The New Art and Science of Teaching" - Robert J. Marzano
7. "Studio Habits of Mind: The Essential Skills for Studio Art Success" - Lois Hetland
8. "Invent to Learn: Making, Tinkering, and Engineering in the Classroom" - Sylvia Libow Martinez and Gary S. Stager
9. "The Creative Arts in Counseling" - Samuel T. Gladding